

## OGAHIY TARIXIY ASARLARIDA TAJNISI MUHARRAF VA SAJ' HOSIL QILISHDA LUG'AVIY IMKONIYATLAR

**Q.Yusupova**, doktorant

**A.O'rozboyev**, filologiya fanlari doktori;

Ogahiy tarixiy asarlari ayni paytda badiiy yo'sinda asar ekanini unda o'zbek mumtoz poetikasining eng go'zal namunalari mavjudligi ham ko'rsatadi.

Shulardan biri *tajnisi muharraf* – harfiy tajnis hosil qilish. Bunda jumlada qo'llanilgan so'zlar asos harflar e'tibori bilan shakldosh bo'lib, harakatlar va nuqtalar miqdori kabi jihatdan farqlanadi. Masalan, *usrat* شسح (qiyinchilik) va *ishrat* ششح (qonuning avtori hasrat zaxmasidin uzulub, *ishrat* shohidining suvrati *usrat* kisvatida pinhon bo'ldi". (RD, 247<sup>b</sup>) E'tibor qaratsak, ushbu parchada bundan tashqari bir necha badiiy san'at namunasi mavjud. Jumladagi *masrat*, *hasrat*, *ishrat*, *suvarat*, *usrat*, *kisvat* so'zları qofiyadoshligi ichki ohangdoshlikni ta'minlagan bo'lsa, *qonun*, *avtor* so'zları musiqa terminlari sifatida; *hasrat*, *zaxma* tibbiyat atamalari sifatida tanosubni, *suvarat*, *kisvat* zidligi tazodni hosl qilmoqda.

Ogahiy tarixiy asarlari lug'at fondi boyishida saj' san'atining ham o'rni katta.

Saj', uning turlari, xususiyatlari haqida mumtoz adabiyotshunoslikda mufassal ma'lumot berilgan<sup>1</sup>. O'zbek va fors-tojik adabiyotshunoslari tomonidan ushbu asarlar mumtoz adiblar ijodiyoti misolida keng o'rganilgan<sup>2</sup>. Saj' san'ati o'zbek nasrining qadimgi namunalaridan, poetik imkoniyatlaridan ekaninin qadimgi turkiy bitiklardoq ko'ramiz. N.Rahmonov yozganidek, "Yodnomada saj' va leksik takrorlar vositasida vaznli nasrning yuzaga kelish xususiyatlari bilan keyingi davrdagi – XV asrdagi prozaga xos umumiy xususiyatlarga ega ekanligi ko'rindi"<sup>3</sup>.

Nazariy manbalar saj' musammatning shakllanish va rivojlanishida ham ma'lum o'rin tutganini ko'rsatadi. "Lug'atnomai Dehxudol'da —musammat" so'zi adabiy

<sup>1</sup> Рашидиддин Ватвот. Хадойику-с-сехр... – М.: 1983.; Вахид Табризий. Джамъ-и Мухтасар. Критический текст, перевод и примечания А.К.Бертельса. – М., Издательство Восточной литературы, 1959. – С. 59.; Атоуллох Хусайний. Бадойиъ-с-саноий. Форс тилидан Алибек Рустамов таржимаси. – Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – Б. 62-66.

<sup>2</sup> Саримсоков Б. Сажъ // Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Zarqalam, 2006. – Б. 50-56.; Раҳмонов В. Бадиий санъатлар. 1976.; Ҳодизода Р., Шукуров М., Жабборов Т. Лугати истилоҳоти адабиётшуноси. – Душанбе. 1964. – С. 95.; Зеҳни Т. Санъати сухан. – Душанбе. 1967. – С. 156.; Мусулмонқулов Р. Сажъ ва сайри тарихии он насрни тоҷик. – Душанбе. 1970.

<sup>3</sup> Раҳмонов Н. Култегин ёдномасининг поэтикаси // Қадимият обидалари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.

termin sifatida ikki xil izohlangan: 1. To‘rt qismga bo‘linadigan va dastlabki uch qismda shoir *sajga’rioya* qiladigan hamda to‘rtinchisida qofiyalanib keladigan *musajja’ she’r*. O‘zbek nasrida saj’ning xususiyatlarini puxta o‘rgangan B.Sarimsoqov “saj” va qofiya aynan bir narsa, “nasrda saj” – nazmda qofiya” yoki “saj” – qofiyali proza” kabi fikrlar, bizningcha, u qadar to‘g‘ri bo‘lmasa kerak” – xulosaga keladi.

Ogahiy tarixiy asarlarida saj’ning quyidagi turlar ko‘proq ishlataligancha:

1. Saj’i mutavoziy. “To‘liq saj”” ma’nosini bildiruvchi saj’ning bu turida o‘zaro saj’lanayotgan so‘zlar ham vaznda, ham raviyda bir-birlari bilan mos keladi. Asarda bunday saj’lanish miqdor jihatidan ko‘pchilikni tashkil qiladi.

2. Saj’i mutarraf, ya’ni “qofiyadosh saj””. Bunda qofiyalanuvchi so‘zlar o‘lchovi mos bo‘lmasa ham, raviyda bir-birlariga mutobiq keladilar. Jumladan, “Riyozu-d-davla”da o‘qiymiz: “bu xonadoni davlatnishon nisbatida dami musodaqat urub, *murasaloti ixlosmazmun* va *makotibi muhabbatmaqrur* irlari bilan nekxoh va do‘stdorlig‘ marosimin zuhurg‘a yetkurur erdilar...” (RD, 246<sup>a</sup>). Bunday ifoda yo‘sini Munis va Ogahiyning tarixiy asarlariga xosligini, deylik, “Firdavsу-l-iqbol”da ko‘p qo‘llanilgan “Va har lahza tarafayn mathurlari qonidin maydoni korzor lolazor hay’atin oshkor qilib, duxoni ajali tuli amalg‘a *xandon* va diydayi jahon maqtullar holig‘a *giryon* bo‘lur erdi.” (FI, 538) qolipidagi ifodalarni yodga soladi. Masalan, quyidagi parchalarda qayd etilgan nazariy ma’lumotlar tasdig‘ini topishimiz mumkin: “Bu nusxayi parishonning ta’lifu tarkibinkim, kamoli g‘ayratdin da’vo qilibmen, ixtomi husulidin zamiri miskinimni xurramu *barumand qil* va bu maydoni bekaronning azmu qat’inkim, zimmayi himmatimg‘a lozim bilibmen, intihosi vusulidin xotiri g‘amginimni shod-u *xursand qil*. Har iborat gavharinkim, g‘ayb xazonasidin chiqarib, huzur rishtasig‘a teribman, xaloyiq tab’ig‘a matbu’-u *marg ‘ub et* va har ma’ni arusinkim, alfozi gunogun zevari bila zeb-u ziynat beribmen, xavos-u avom ko‘ngliga mahbub-u *matlub et*. (JVS, 4<sup>a</sup>) Yoki “*Masrat* qonuning avtori hasrat zaxmasidin uzulub, *ishrat* shohidining suvrati usrat kisvatida pinhon bo‘ldi. A’laddavom avqotguzarlig‘ masolihi mazore’ida tafakkur mahsuloti *zoye’* va nomusdorlig‘ shomiti hunar-u fazilat iktisobig‘a *mone’* bo‘ldi. Ne ko‘nglumda jahon havodisidin jam’iyat asari paydo va ne tab’imda zamon navoyibidin amniyat xabari huvaydo; g‘am xaylining sinonrezligidin farqi rohatim yoruq, alam saylining to‘fonxezligidin kulbayi ehzonim yiquq”. (RD, 247<sup>b</sup>)

3. Saj’i mutavozin “qofiyalanmagan saj””. O‘lchovi bir-biriga mos kelgan bo‘lsa ham, qofiyalanmagan so‘zlarning saj’lanishini ifoda etadi: Masalan, “Qodirekim, qudrati komilasi bila adami daryoyi bekaronidin javohiri vujudkim, iborati

<sup>1</sup> Саримсоқов Б. Сажъ ва кофия // Ўзбек тили ва адабиёти. 1972. №1. – Б. 78.

mavjudotdindur, sohili zuhurg'a *chiqarur* va mavjudot korvonidin manozili fuqdong'akim, murodi adam sahrosidur, *boshqarur*". (FI) yoki "Kuffori shaqovatanjom muborizlarining taharrurparvar ko'ngillari payvasta *siniqdur* sinoni salobatidin va ubdayi asnom bahodirlarining sharoratasar boshlari hamisha *yoruqdur* hisomi shijoatidin". (JVS, 5<sup>a</sup>)

Ogahiy tarixiy asarlaridagi ayrim o'rnlardagi jumllalarda saj'ning turli navlari aralash holda ham ishlatilgan: "Har *sohibdavlatekim*, alar mehr-u muhabbatig'a ko'ngul bo'ston saroyin manzil *etti*, kamoli din talabida murodu maqsad *sarhadig'a etti* va har *tiyraftratekim*, alarning bug'zu a'do *o'tig'a jur'at ko'rguzdi*, iymon dorulamonig'a kirmakdin *ko'ngil uzd*" (JVS, 6<sup>a</sup>)

Ushbu iqtibosda to'rt saj'lanuvchi qism mavjud: *sohibdavlatekim* – *tiyraftratekim*; *etti* – *etti*; *jur'at ko'rguzdi* – *ko'ngul uzdi*; *sarhadig'a* – *o'tig'a*. Ularning birinchi, ikkinchi, uchinchi saj'lanuvchilar mutavoziy (ham vazn, ham qofiyada moslashuvchi); to'rtinchi vaznda ham mos emas, ham och qofiyani tashkil etadi.

Ogahiy tarixiy asarlaridagi, xususan, kirish qismlar, lirik chekinishlar, kiritma o'rnlarda saj'ning go'zal namunalari yaratilgan. Buni bиргина misol orqali ham ko'rishimiz mumkin: "*arbobi donishu ashobi binishga ajz tilining shikasta maqollig'i* bila mundoq arzi hol qilurkim, charxi sitamkorning *g'addor-u badkirdorlig'i* va *jahoni nopydorning badkoru jafoshiorlig'idin shabob avoyilining ovoni tarabnishonikim*, umrim gulistonining bahori *fayzafshoni erdi*, ro'zgor taalluqoti ibtilosining sarsari burudatasari muloqotidin mahzunliq xazonig'a tabdil va yigitlik ibtidosining *zamoni ishrattav'omonikim*, hayotim shabistonining *furuzoni erdi*, dahri bemador tasrifotining istilosining tundbodi to'fonnihodi ofotidin mag'munliq dog'i hirmonig'a tahvil topdi". (RD, 247<sup>b</sup>)

Ogahiy tarixiy asarlarida saj'ning yetakchi san'at, asosiy badiiy ifodaga aylanish ildizlarini, birinchi navbatda, xalq og'zaki ijodi namunalarida shakllangan asriy an'analar, ikkinchi navbatda, Munis va Ogahiy o'zлари tarjima qilgan fors tilidagi tarixiy solnomalar uslubi, uchinchi navbatda, muarrixlarning real voqealarga badiiy tus berish mahorati bilan bog'lanadi.

Qayd etilganlar Ogahiy tarixiy asarlari tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalari tutashligida alohida tadqiqot obyektlari ekanini, ularni puxta o'rganish lingvokulturologiya, lingvoestetika, lingvopoetika sohalar rivojiga muhim hissa bo'la olishini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan manbalar:

FI – Shir Muhammad Mirab Munis and Myhammad Riza Agahi. Firdavs al-iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T.J. Brill–Leiden–New York–Kobenhavn–Koln, 1988.

RD – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. №5364/II. 246<sup>a</sup>-364<sup>a</sup>-varaqlar.

ZT – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti. 821/ III. 386<sup>a</sup>-435<sup>a</sup>-varaqlar.

GD – O‘z RFA Sharqshunoslik instituti, №7572.